



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz



<https://www.facebook.com/zarnews.uz>



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

KUN
HIKMATI

Odob-axloq
qidalariga
to'g'ri
kelmaydigan
harakat ham,
fikr ham aybdir

Zarafshon

↓ Prezident farmoniga ko'ra

1,5 million aholi kambag'allikdan chiqariladi

Bu Prezidentning "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmonida belgilangan.

Farmonga ko'ra, 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iktisosdi siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

Ayni maqsadda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshiriladi hamda dasturni amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etiladi.

2024-yil 1-dekabrdan "mahalla yettiligi" tomonidan kambag'al oilalarning ijtimoiy sharoiti va kambag'allikka tushish sabablarini o'rganish natijasida ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Kambag'al oilalar reyestri shakllantiriladi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab:

a) kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam olayotgan oilalarning rasmiy band bo'limgan a'zolari ishga joylashganda, o'zini o'zi band qilganda yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'nga qo'yganda, ushbu nafaqa va moddiy yordamni ularning muddati tugagunga qadar, biroq 6 oydan ko'p bo'limgan muddatga to'lash davom ettiriladi;

b) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo'limgan oylig ish haqsi to'langan holda ishga joylashgan Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oila a'zosi uchun ijtimoiy soliq uch yil davomida 1 foiz stavkada to'lanadi;

v) kambag'al oilalarga ko'mak choralar ijtimoiy shartnoma asosida mehnatga layoqatlari oila a'zolarining bandligini ta'minlash, o'z tomorqasidan samaraloy foydalanan (ekin ekish), oila a'zolari, shu jumladan, farzandlarining bilim olishi, kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishi hamda sog'lig'ini nazoratga olishi, uy-joyini ozoda tutishi kabi shartlar inobatga olingan holda ko'rsatiladi.

Bunda ijtimoiy shartnoma shartlari bajarilagan taqdirda, ijtimoiy yordam va xizmatlar (ijtimoiy nafaqadan tashqari) ko'rsatish to'xtatiladi.

Saylovga tayyorgarlik jarayonlari kuzatildi



Markaziy saylov komissiyasi raisi Zayniddin Nizomxo'jayev viloyatimizda bo'lib, saylovga tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishdi.

Jumladan, Markaziy saylov komissiyasi raisi Samarkand shahridagi 73-saylov uchastkasida komissiya a'zolari va saylovchilar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Komissiya a'zolari bilan suhbatalashdi.

1073 nafar saylovchi ovoz beradigan mazkur uchastkada ayni paytda saylovga tayyorgarlik ishlari qizg'in olib borilmoqda. Saylovga oid ma'lumotlar joylashtirilgan, barcha ziaru jinozlar yetkazib berilgan.

Z.Nizomxo'jayev Samarkand shahridagi uchastka saylov komissiyalari a'zolari uchun tashkil etilgan seminarda qatnashdi. O'quv seminar ishtirokchilariga bu yilgi saylovlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha berdi.

Samarqand viloyatiga safari davomida Z.Nizomxo'jayev viloyat hududiy saylov komissiyasi faoliyati bilan ham tanishib, komissiya a'zolari bilan muloqot qildi. Suhbat davomida bu yil parlament quyi palatasiga ilk bor aralash saylov tizimi asosida saylov o'tkazilayotgani, saylovga oid qonunchilikdagi o'zgarishlar haqida so'z yuritildi.

Viloyat hududi saylov komissiyasi matbuot markazi.

Daholikka erishgan buyuk olim, mashhur davlat arbobi

↓ Xalqaro anjuman

10-11-oktabr kunlari Samarcanda

"Mirzo Ulug'bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 12-sentabrdagi qaroriga ko'ra, yurtimizda buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligi keng nishonlanmoqda.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi va viloyat hokimligi tomonidan tashkil etilgan mazkur anjuman qatnashchilarini dastlab Mirzo Ulug'bek rassadxonasida bo'lib, ulug' alloma haykali poyiga gullar qo'yildi.

Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat universitetida konferensiyaning ochilish marosimi o'tkazildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi vits-e-prezidenti B.Abdulhalimov, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri birinchi o'rnbosari O.Makhmamov, Samarcand davlat universiteti rektori R.Xolmurodov, viloyat hokimi o'rnbosari H.To'xtayev va boshqalar mazkur anjumanning o'z davrliga Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek tomonidan dunyonning yirik ilm-ma'rifat markazlaridan biriga aylantirilgan Samarcanda, ulug' astronom olim tashkil etgan madrasasi olyanigan vorisi hisoblangan Samarcand davlat universitetida tashkil etilishi churur ramziy ma'noga egaligini ta'kidlildar.

– Insoniyat tarixida ko'p kashfiyotlar qilgan, o'z ilmi bilan odamlar turmush tarzi o'zgarishiga hissa qo'shgan olimlar bor, lekin ularning hammasi ham daholik darajasiga ko'tarilmagan, – deydi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti direktori, akademik Shuhrat Egamberdiyev. – Buyuk astronom Mirzo Ulug'bek boborim esa dunyo ilm ahli tomonidan daho sifatida e'tirof etilgan olimlardan biriki, bundan har qancha faxrlansak arzyidi. Shuning uchun bugungi xalqaro anjumanda bir qator xalqaro tashkilotlar, dunyoga



mashhur nufuzli universitetlar vakillari, taniqli astronom olimlari ishtiroy etmoda.

Konferensiyaning ochilish marosimida Fransiyadagi Temuriylar tarixi va san'atini o'rganish assotsiatsiyasi rahbari Federik Bressand xonim onlaysiz ishtiroy etib, u boshchiligidagi jamiyatning Yevropa davlatlari, xususan, Fransiyada Mirzo Ulug'bek merosini o'rganish borasida amalga oshirayotgan ishlari va kelgusi rejalar haqida ma'lumot berdi.

Mazkur assotsiatsiya tashhabusi bilan Fransiya va O'zbekistondagi teatr aktyorlari hamkorligida yaratilgan "Mirzo Ulug'bek" spektaklidan lavhalar namoyish etildi.

Shundan so'ng Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yili munosabati bilan nashr etilgan buyuk munajjimning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" va "To'rt ular tarixi" asarlarining bir necha tildagi yangi nashrлari taqdimoti o'tkazildi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq xalqlari fani va madaniyati tarixi bo'limi mudir, yirik sharqshunos olim, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari tarjimonи Ashraf Ahmedov mazkur asari va uning tarjima jarayonlari haqida gapirib berdi.

– "Ziji" Mirzo Ulug'bekning shoh asari bo'lib, undan

keyingi fundamental bilimlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan, – dedi A.Ahmedov. – Mazkur asar o'z tarkibiga ko'ra, VIII-IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos va balanddir. Men 1974-yilda ushbu asar tarjimasi ustida ish boshlagandan. 20 yil davomida shu ish bilan shug'ullanmidim. Dastlab asarni rus tiliga o'girgan bo'lsam, keyin o'zbekcha tarjima qilishga muvaffaq bo'ldim. To'rt kitobdan iborat asar ilk bor to'liqligicha o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bu bizning bebaho ilmiy boyligimizdir.

Anjuman "Shaxr astronomiyasida homiylik va homiyalar", "Mirzo Ulug'bek davrida ilmiy va ma'naviy hayat" shu'balarida o'z ishini davom ettirdi. Ushbu sessiyalarda Mirzo Ulug'bekning astronomiya ilmi rivojiga qo'shgan hissasi, yaratgan asarlariga oid so'nggi taqdimotlar natijalar, ilmiy yangilklar, o'sha davr ilmiy va madaniy hayatiga doir, shuningdek, ulug' alloma shogirdlarining faoliyatiga bag'ishlangan ma'ruzalar, taqdimotlar bilan birga, Sharq mamlakatlari va Yevropa davlatlari astronomiya fani taraqqiyoti va bunda xalqaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ona tabiatni birgalikda asraylik!



Har bir inson farovonligi uchun!



Urgut tumanida targ'ibot punkti tashkil etildi

↓ Saylov – 2024



O'zbekiston Ekologik partiyasi viloyat tashkiloti xodimlari, ekfaol yoshlar Samarcand shahrining diqqatga sazovor joylarida targ'ibot tadbirlarini uyushqoqlik bilan o'tkazishmoqda.

Shunday tadbirlardan biri Samarcand shahrining "Makon mall" savdo majmui hududida bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida targ'ibotchilar partyaning saylovoldi dasturidan o'rın olgan jamoat transportini elektrobuslar hisobidan rivojlantirish, 10 yoshdan katta daraxtlari ko'chirib o'tkazishni taqiqlash, seysmik holatlarni hisobga olib, ko'p qavatlari uylar va ijtimoiy soha obyektlarini qurish talablarini kuchaytirish xususidagi dolzarb vazifalarni tushuntirishdi.

Partiyadan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzodlar aholi gavjum joylar, bozorlar va savdo majmualari, mahallalarda bo'lib, saylovchilar bilan uchrashmoqda va ularga o'z dasurlari haqida batafsil ma'lumot bermoqda.

Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga nomzod Baha Ergashova o'z saylov okrugidagi saylovchilarini dasturi bilan tanishtirdi. Ularning savollariga batafsil javob berdi. Saylovchilar O'zbekiston Ekologik partiyasining saylovoldi dasturi haqida bilimlarga ega bo'lishdi.

Ekologik partiya viloyat kengashi matbuot xizmati.

Samarqand shahridagi Azizon mahallasida xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Badridin Nasriyevning saylovoldi uchrashuvni bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda deputatlarga nomzodning ishonchli vakili Farog'at Shokirova B.Nasriyev tarjimai holi va maqsad-vazifalariga to'xtaldi. Har bir inson farovonligi, jamiyatimiz ravnaqi yo'lida kurashayotgan partyaning saylovoldi dasturini va partiyadan ko'rsatilgan nomzodni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

Tadbirda nomzod partyaning saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar haqida atroficha so'z yuritib, davlat va jamiyati rivojlantirish, huquqlar va imkoniyatlar tengligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritishga oid ko'plab taklif va tashabbuslar ilgari surilganini ta'kidladi.

Partiya o'z dasturiy maqsadlarga erishish yo'lida keyingi besh yillik uchun 10 ta yo'nalish, 15 ta strategik qadamdan iborat ustuvor vazifalar belgilab olingani ta'kidlandi.

Saylovchilar nomzodning saylovoldi dasturini ma'qullab, dasturda belgilangan rejalar yuzasidan o'z fikr va muloqatlarini bildirdilar.

XDP viloyat kengashi matbuot xizmati.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiysi saylovoldi tashviqoti tadbirlarini «Teng imkoniyatlar va adolatli jamiyat sari!» shiori ostidagi xalqchil va adolatli dasturlar orqali saylovchilarining ishonchini oshirish, ularni mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shishga qaratilgan muhim tashabbuslari bilan olib bormoqda. Buning natijasi o'Iroq aholi gavjum joylarda tashkil etilayotgan targ'ibot punktlari ishi o'z samarasini bermoqda.

Jumladan, partyaning Urgut tuman kengashi tomonidan tuman tibbiyot birlashmasi bog'ida tashkil etilgan tashviqot tadbirida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatliligiga nomzod Mahina Ahrorova hamda partiya Urgut tuman kengashi raisi Zamira Abduraxmonova partiya saylovoldi dasturining mazmun-mohiyati va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan tashabbuslari haqida ma'lumot berdi.

Tashviqot tadbiri davomida partyaning «Yosh adolat-chilar qanoti» va "Ayollar qanoti" faollari tomonidan aholi vakillariga partyaning va nomzodlarning saylovoldi dasturi tarqatildi.

"Adolat" SDP viloyat kengashi matbuot xizmati.

Oila sudyasi:

“Qaror chiqarish oson, to‘g‘ri xulosaga kelish qiyin”

- Oиласида низо чиқибди, иши судда екан.

Shunga о‘xshash xabarlarni eshitishimiz bilan xayolimizга ажрашыотган нотинч оила келди. Unda ko‘pincha er zulmkor, xotin esa mazluma bo‘лади. Ammo oilaviy munosabatlardagi низо ва унинг huquqiy меzonlari shu qadar murakkab va ko‘p tarmoqliki, u bo‘yicha biror fikr bildirish va ayniqsa, qaror chiqarish kishidan chuqur bilim va mas‘uliyat talab qiladi.

Shu bois Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarни mustahkamlash va xotin-qizlarning faoliyini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tumanlararo sudlarda oilaviy nizolarni ko‘rishga ixtisoslashgan sudyalar korpusini shaklantirish vazifasi qo‘yildi. Joriy yilning 1-fevralidan tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar, Namangan tumanlararo va Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudlarining 2 nafardan sudyasi oilaviy nizolarni ko‘rish bo‘yicha ixtisoslashtirilib, “Oila sudyalari” korpusi tashkil etildi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar suda bo‘lib, qaror ijrosi va oila sudyalari faoliyati bilan tanishdi.

— Oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan 32 turdag'i fuqarolik ishlari ko‘rib chiqish bizga yuqilgan, - deydi fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar sudi raisining o‘rnibosari, oila sudyasi Aziza Ismatova. — Bunga alimment undirish, ota-onalik huquqini cheklash yoki undan mahrum etish, bola bilan ko‘rishish tartibi va otalikni belgilash, farzandlikka olish, nikohdan ajratish, nikohni haqiqiy emas deb topish singari murakkab jarayonlar kiradi. Albatta, har bir ish alohida yondashuvni talab qiladi. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki, sud vaqtida istirokhilar hissiyotlarini jilovlay olmaydi, shaxsiy hayotining sudda ko‘rib chiqishi har kim uchun ham og‘ir. Oila sudyasi bunday vaziyatlarga tayyor bo‘lishi, avvalo, nizoni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

Ma‘lumotga ko‘ra, fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar sudi tomonidan joriy yilning birinchi yarmida ko‘rib, tamomlangan 1976 ta ishning 31,7 foizi bevosita oila sudyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Birgina nikohdan ajratish masalasiagi ishlari 729 tani tashkil etadi. Shunday 338 tasi oila sudyalari tomonidan ko‘rilib, 29 tasi qanoatlantirilgan, 38 holatda tarafalar yarashtirilib, oila saqlab qolning.

Sud binosida oilalarni yarashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlari o‘tkazish uchun alohida xona hamda bolalar xonasi mavjud. Yarashish ehtimoliyuqori bo‘lgan oilalar jalb qilingan holda har oyda mediatsiya tadbirleri o‘tkaziladi. Unda mahalla faollari, psixolog va boshqa mutaxassislar ishtirot etib, oilalarni arsab qolish choralarini ko‘radi.

— Ishimizni mukammal qilyapmiz, deyish noto‘g‘ri, - deydi Aziza Ismatova. — Faqat qonunga tayanib, qaror chiqarish oson, lekin oilaviy munosabatlari yuzasidan to‘g‘ri xulosaga chiqarish va to‘g‘ri qaror qabul qilish anche murakkab jarayon. Bunda birgina noto‘g‘ri qaror bilan bir emas, bir nechta insonning hayotiga ta’sir o‘tkazasiz. Vazifamiz o‘ta mas‘uliyatlari. Zarur bo‘lsa, fuqaroning uyiga borib, yashash muhiti, oila a‘zolarining kayfiyatini o‘rganib kelamiz. Ba‘zan qarindoshlar sud binosida janjallashib ketadi. Biz ularga begonalarning aralashuvisiz, diliadi gaplarini aytilib olishi uchun imkoniyat beramiz. Aksariyat hollarda nizoning sababi arzimas masala bo‘lib chiqadi. Shundan keyin yarashganlar ham ko‘p.

Ajtim joizki, yurtimizda oila sudyasi instituti xalqaro tajriba asosida joriy qilingan. Shunday amaliyat Angliya, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya va Kanadada mavjud. Xususan, Hindistonda 1984-yildan beri oila sudlari faoliyot olib boradi. Ushbu sudlar nikoh, er-xotinning huquqlarini tiklash, vasiylik, mulkiy va niko‘ maqomi bilan bog‘liq nizolarni ko‘rib chiqadi. Kanadada esa oilaviy sudlar qiyin vaziyatda qolgan oilalarga yordam berish markazi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu sudda nizolashayotgan oila a‘zolariga qator huquqiy va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Yaponiya sudlarida mediko-psixiatriya konsultatsiyasi, yarashuv komissiyasi

Inson va qonun



faoliyat yuritadi.

Milliy sud tizimimizda esa yangi korpus birinchi navbatda, sudyalarining oilaviy nizolarni ko‘rishga ixtisoslashgan ta‘minlaydi. Shuningdek, sudyalar har bir oilaviy nizoni alohida e’tibor qaragan holda chuqur o‘rganish, uning yuzaga kelish sabablari, mohiyatini to‘liq tushunib yetish imkoniga ega bo‘ladi.

To‘g‘ri, bu yangi amaliyot hozircha tajriba sifatida yo‘iga qo‘yilgan. Lekin sudyalarining o‘tgan vaqtidagi faoliyati, umuman, mazkur turdag'i ishlari xususiyatini tahlil qilish asosida aytish mumkinki, oila sudyalar o‘z navbatida yaxshi psixolog va notiq bo‘lishi kerak. Nizolarni hal qilishda bu omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun esa ularni aynan shu yo‘nalishlarda o‘qitish, malakasini oshirish tizimini yo‘iga qo‘yish lozim. Qolaversa, bir sudyalarining doimiy ravishda oilaviy nizolar bilan ishlashini tasavvur qilib ko‘ring. Bu unda psixologik zo‘riqish hosil qiladi. Demak, sudyalarining o‘zi ham psixologik himoyaga olinishi zarur. Hozircha bu borada ish qilinmagan.

Masalaning yana bir murakkab tarifi, sud oilaviy nizolar ko‘rib chiqiladigan so‘nggi idora hisoblanadi. Ya‘ni, olaqadagi nizo bungacha oson hal qilinishi mumkin bo‘lgan bo‘lsa, atrofdagilar, mahalla faollari va boshqa mas‘ullarning e’tiborsizligi yoki befarqligi sababli u kattarib, yechimsiz holatga kelgan.

Ayni vaziyatda nizoni hal qilish mas‘uliyati sudyalar zimmasida qolmasligi lozim. Oila sudyalarani aniqlangan muammolarni bar-taraf etish maqsadida hokimlik, mahalla yettiligi, xotin-qizlar faollari, diniy ulamo va boshqa soha mutasadillari bilan hamkorlik qilishi mumkin, ammo bu ishda ham rahbar yoki javobgar yo‘q.

— Ajrim masalasini olaylik, er-xotin sudga ariza bilan murojaat qilganidan keyin sud yarashish uchun muhlat belgilab, mahalla va boshqa mas‘ullarga holatni o‘rganish yuzasidan xat chiqaradi, - deydi Aziza Ismatova.

— Vaholanki, bunda fuqarolar o‘rtasidagi rishtalar allaqachon uzilib bo‘lgan bo‘ladi. Agar ular sudga ajrim masalasida murojaat qilishdan oldin mahallasidagi yarashtiruv komissiyasining xulosasini olishi tartibi yo‘iga qo‘yilsa yoki shu komissiya tomonlar yarashishi uchun muhlat belgilash vakolatiga ega bo‘lsa, aksariyat ishlari sudgacha yetib kelмаган bo‘lar edi.

Oila kichik bir jamiyat hisoblanadi. U mustahkam, tinch va totuv bo‘lsa, davlat ham farovon bo‘ladi. Oila sudyasi instituti ayni maqsad yo‘lidagi yana bir muhim qadam, deyish mumkin. Faqat u nomigagina emas, samarali ishlashi, va buning uchun barcha sharoitlar yaratilishi kerak.

Asqar BAROTOV.

Nomigagina emas, samarali ishslash kerak

Yangi tizim

Zarafshon

Xospis tushunchasi mamlakatimizga kirib kelgan bo‘lsa-da, hozircha uning asosiy faoliyati ko‘pchilikka yaxshi tanish emas. Vaholanki, bu tushuncha xorijda allaqachon shakllangan va unga murojaat qilayotgan bemorlar qayerga kelgani va nima uchun borayotganini yaxshi bilishadi. Bizda-chi, mazkur tushunchani qanchalik angayapmiz? Samarqandda mamlakatimizdagi sanoqlari xospislardan biri ishlayotganidan odamlar xabar dormi?

Samarqand shahar, Kimyogarlar qo‘rg‘onidagi eski shifoxonalaridan biri mahalliy budget mablag‘lari hisobidan to‘liq rekonstruksiya qilinib, qayta jihozlanib, hududlararo xospis sifatida ish boshlaganiga bir yildan oshib goldi. Muassasaning asosiy maqsadi og‘ir gematologik, onkologik va klinik immunologik kasalliklari bor bemorlarga palliativ yordam ko‘rsatishdan iborat. Mazkur xospis samarqandliklar bilan bir qatorda qo‘sni Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari aholsiga ham xizmat ko‘rsatadi.

- Avvalo, aholiga palliativ yordam ko‘rsatish haqida batafsil to‘xtalish lozim, - deydi xospis bosh shifokori, tibbiyot fanlari doktori Nodir Rahimov. — Chunki bizning vazifamiz og‘ir ahvoldagi bemorning ahvolini yengillatish va umrini uzaytirish uchun mo‘ljallangan yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Tasavvur qiling, og‘ir ahvoldagi, ayniqsa, onkologik, klinik immunologik kasalliklari bor bemor kasallikning eng og‘ir bosqichlarida. Uni bu holatda shifoxonalar qabul qila olmaydi, sababi, standartlar bo‘yicha ushuv bemorha barcha tibbiyixizmatlar ko‘rsatilgan. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, uni turli darajadagi og‘riq va bir nechta asoratlar bilan uzoq muddat uvida, shunchaki tashlab qo‘yil bo‘lmaydi. Ularning dardiga darmon bo‘lish, sifatli yordam ko‘rsatish juda muhim ahamiyatiga ega. Ayniqsa, bunday bemorlar mavjud oilda xonodon egalari uchun murakkab vaziyat yuzaga keladi. Ular bemor parvarishi haqida yaxshi tushunchaga ega bo‘lmaydi, doimiy og‘riqlar va uzoq vaqt yotoq oqibatida kelib chiqadigan kasallik asoratlarning oldini ololmaydilar. Bu esa butun oila a‘zolarni stress holatiga keltiradi, ularning turmushida halovat, ishida unum bo‘lmaydi. To‘g‘ri, xospisda bemorlar yillab qolmaydi, buning ham o‘ziga yarasha standartlari bor. Misol uchun bizda bemorlar ko‘pi bilan olti oygacha davolanshi mumkin. 50 o‘rinli xospisdagi palatalarning har biri ikki kishilik. Bittasida bemor yotsa, ikkinchisida uning qarovchisi bo‘ladi. Ya‘ni, biz bemor qarovchilariga ham unga to‘g‘ri qarashni parallel tarzda o‘rgatib boramiz.

Aytish kerakki, mamlakatimiz rahbari qarori asosida tashkil etilgan xospisda davolash standartlari to‘liq xorij tajribasi asosida, bepul olib borilmoga. Ammo bu tajribani qo‘llashda bizning bemorlarning ahvol-ruhiyatini hisobga olna holda ish ko‘rmoqdamiz. Yaxshi bilasiz, xorijda bemorning holati unga to‘liq bayon etiladi, ya‘ni qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bemor o‘zining haqiqiy tashxisi va ahvolini bilishi kerak. Shuning uchun ham xospisiga kelayotganlarda bu yerdagi muolajalar haqida tushuncha bo‘ladi. Ammo bizda halyim bemorlarga, iloji boricha, uning holati aytilmaydi, bu ko‘proq ularning yaqinlari iltimosiga ko‘ra bo‘ladi.

Olti nafar shifokor, 23 nafar hamshira va shuncha kichik tibbiyot xodimi faoliyat olib borayotgan mazkur muassasada shu paytigacha 1,5 ming nafar bemor davolanih, dardini yengillashtirib ketdi. Inson hayoti shunday: to‘satdan, hech kutilmagan holatga tushishi, yetti uxlab tushingga kirmagan voqealar guvohiga aylay-



nishing mumkin. Shaxdam qadamlar ila yurganimizda salomatligimizdan ayrılib qolishimiz ham hech gapmas. Shunday paytda o‘zini mardonavor tutgan inson aslida umridan nolimasa ham bo‘la-di, demak, bu u hayotdan ko‘p narsani o‘zlashtiribdi.

Xospis qaysidir ma’noda shunday, mardonavorlikni tarbiya qiladi-gan makon.

- Bu yerda ishslashning o‘ziga xos murakkabliklari bor, - deydi xospis shifokori Avaz Murodov. — Odatda, shifokor bemorni to‘liq davolab, sog‘ayib ketganidan ruhlanadi, ishidan qaysidir ma’noda zavq oladi. Bu yerda esa bemorlarga doimiy qarow va parvarish lozim. Ruhiyati juda noziklashgan, shifoxonalarda yotaverib char-chagan, demakki, umidsizlikka tushgan bemorlar bo‘ladi. Ularning ko‘nglini olish qiyin, har biriga to‘g‘ri so‘z topa bilingishiz kerak. Afsuski, keluvchilar, ayniqsa, onkologik kasalliklari bilan og‘igan bemorlar orasida o‘z aybi bilan kasalligini o‘tkazib yuborganlar ham bo‘ladi. Ya‘ni, shifokorlarning saraton, degan tashxisini qabul qila olmay, tabibim tabib yurgen bemorlar ham ko‘p. Natijada ular shunaqa og‘ir ahvoldagi bemorlarga shifoxonalarde yopilgan eshiklar xospislarda ochiladi.

Gulruh MO‘MINOVA.

“Ayollar o‘rtasida samarqandlik ilk grossmeyster bo‘lmoqchiman”

Championlarimiz



Keyingi yillarda shaxmat bo‘yicha jahon championi va Butunjahon shaxmat olimpiyadasi mezbonligi O‘zbekistonga ishonib topshirilmoqda. Buning asosiy sabablardan biri mamlakatimizda shaxmatchilarning yangi avlodni yetishib chiqyapti.

Jumladan, 2022-yil Hindistonning Chennay shahrida 44-Butunjahon shaxmat olimpiyadasi O‘zbekiston terma jamoasi mamlakat tarixida birinchi marta shaxmat olimpiyadasi oltin medalni qo‘lga kirdidi. O‘tgan yil samarqandlik 14 yoshli Afruz Hamdamova Italyada o‘tkazilgan yoshlar o‘rtasidagi jahon championatida O‘zbekiston tarixida qizlar o‘rtasida ilk jahon championi bo‘ldi. Yosh grossmeyster Nodirbek Abdusattorov jahonning eng yaxshi to‘tinchi raqamli shaxmatchisiga aylandi.

Yaqinda Vengriya poytaxti Budapest shahrida o‘tkazilgan 45-Butunjahon shaxmat olimpiyadasi O‘zbekiston terma jamoasi tarkibida bo‘lgan Jahongir Vohidov, Nodirbek Abdusattorov hamda Javohir Sindorov jamoaviy bahsda bronza medaliga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, olimpiyadaning ayollar bahsida 12-o‘rinni egallagan terma jamoasiy vakillari tarkibida viloyatimiz sportchilari Afruz Hamdamova va Marjona Malikova ham munosib ishtirot etdi.

O‘zbekiston ayollar terma jamoasi a‘zosi, shaxmat bo‘yicha Osiyo championi Marjona Malikova ham xalqaro darajadagi grossmeyster bo‘lishiga bir qadam qoldi. Marjona 2002-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. 7 yoshligidan shaxmat bilan shug‘ullanadi. Faoliyati davomida bir necha marta O‘zbekiston championi va sovindori, xalqaro turnirlar ishtirokchisi bo‘lgan. 2022-yilda

Qirg‘izistonda o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilgan “G‘arbiy Osiyo shaxmat championati - 2022” Osiyo championatida 20 yoshgacha bo‘lgan ayollar o‘rtasida oltin medalni qo‘lga kirdigan. Ispaniyaning Sardegna shahrida o‘tkazilgan “Fide World Junior Chess Championship - 2022” chempionatida, 2023-yil Qirg‘izistonda o‘tkazilgan “Issyk-Kul Open - 2023” halqaro shaxmat musobaqasida birinchi o‘rinni egallagan. Joriy yil Rossiyaning Kazan shahrida o‘tkazilgan “BRIKS” jahon hamjihatlik olimpiada baxslarida bilsit va rapid yo‘nalishlarida uchinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi.

- Oilda to‘ng‘ich farzandman, ikki ukam bor, - deydi Marjona Malikova. - Ota-onam matematika fani o‘qituvchisi bo‘lgani uchun uyda ko‘p shaxmat o‘ynardi. Men esa ularni kuzatib yurishlarini o‘rganganman. Otam qiziqishimni ko‘rib, shaxmat to‘garagiga o‘qyঁva shug‘ullanishim uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Ilk murabbiyim Viktor Ismailovdan shaxmat sirlarini o‘rganiganman. Shaxmatda amerikalik grossmeyster Hikaru Nakamura ga muxlislik qilaman.

Ko‘proq onlayn shaxmat o‘ynayman, bo‘sh vaqtimda sayr qilaman, musiqa eshitaman. Faoliyatimga kelsak, 2022-yilda O‘zbekiston ayollar terma jamoasiga qabul qilinganman va hozirda xalqaro tofafadagi grossmeyster Tohir Vohidov murabbiyilida nufuzli musobaqlarda ishtirot etyapman. Yaqinda Budapesht shahrida o‘tkazilgan 45-Butunjahon shaxmat olimpiyadasida jamoaviy ishtirokimiz yaxshi o‘tdi. 180 dan ziyod davlat shaxmatchilar ishtirot etgan olimpiyadada 12-o‘rinni qo‘lga kiritidik va o‘simizdan ancha kuchli bo‘lgan jamoalarga qarshi raqobatlashdik. Men olti o‘yinda 2,5 ochko to‘pladim. Tan olish kerak, raqiblarimiz bizdan ancha kuchli edi, shunga qaramay, yaxshi o‘yin ko‘rsatdik, deb o‘ylayman.

2026-yilda 46-Butunjahon shaxmat olimpiyadasi Samarqandda o‘tkaziladi. Musobaqa tayyorgarlikni boshlaganmiz. Hozirda murabbiyim bilan kamchiliklarim ustida va ko‘proq yangi debyutlar, yangi taktikalar, o‘yin vaqtidagi rejalar ustida ishlayapmiz. Samarqanddan xotin-qizlar o‘rtasida grossmeyster chiqmagan, lekin ayol masterlar bor. Men ham hozirda WIM (Woman International Master) shaxmat bo‘yicha xalqaro ayollar masteriman va bitta xalqaro ayollar grossmeysteri normasi bor. Yana ikkita shunday normani qo‘lga kirtsam, ayollar grossmeysteri bo‘laman. Kelajakdagagi maq-sadim grossmeysterlikka erishish va ko‘plab xalqaro turnirlar g‘olib bo‘lib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilish.

Ma'lumotlarga ko'ra, har kuni dunyoda o'rtacha 200 nafarga yaqin kishi tabiiy ofat qurboni bo'ladi. Shunga qaramay, uning oldini olish bo'yicha aniq ko'rsatmalarни ishlab chiqish muammoligicha qolmoqda. Shu bois Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 2017-yildagi rezolyutsiyasiga asosan har yilning 13-oktabr sanaasi Xalqaro halokatlar xavfini kamaytirish kuni deb e'lon qilingan.

Hech bir mamlakat yo'qki, favqulodda vaziyatlar bo'imasligidan to'la kafolatlangan bo'lsa. Tabiyi ofatning katta-kichigi bo'lmaydi va u mavsum tanlamaydi. Ayrim mamlakatlarda jazirama issiq xavf

tug'dirs, ba'zi o'lkalarda kutilmaga sel va suv toshqinlari yuz bermoqda.

Shunday ekan, har bir inson favqulodda vaziyatlar yuz berishiغا, xususan, tabiiy ofatlarga tayyor turishi, undan muhofazalanish qoidalari bilishi lozim. Buning eng samarali usuli fuqarolarni yoshlikdan tayyorlab borish hisoblanadi. Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatmoda.

Xo'sh, bu qanday amalga oshiriladi? Birinchi navbatda, ta'lim muassasalarida tabiiy ofatlardan

muhofazalanish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tilishi yo'lg'a qo'yilishi kerak. Shuningdek, ota-onalar ham uning tartibi va talablarini bilishi, uy sharoitida farzandlariga o'rgatishi maqsadga muvoqiq. To'g'ri va tartibli harakat nafaqt o'zingiz, balki boshsharning xavfsizligiga ham xizmat qiladi.

Misol uchun, zilzila vaqtida ko'p qavatlari uylar istiqomat qiluvchi fuqarolarning ko'phchiligi zinapoga yugurib chiqadi. Bu xato. Sababi, ko'p hollarda zilzila vaqtida

da aynan shu qurilmalar birinchi navbatda qulaydi. Ikkinci qavatdan yuqorida yashovchilar hech qachon lift yoki zinapoyaga qarab yugurmasligi kerak. Bunday vaziyatda uyning eshidigini ochib, uning o'rniqa turish lozim. Maktab o'quvchilar esa partalar tagiga kirib, oynaga teskarri o'girilib, boshshari va yuzularini qo'llari bilan berkibit olishlari zarur.

Guvohi bo'lganiningizdek, xavfsizlik qoidalari u qadar qiyin emas. Faqat ularni doimiy takrorlab, yodda saqlab borsak, kutilmagan ofatlar vaqtida qo'llashimiz oson bo'ladi. Unutmaylik, har kimning xavfsizligi avvalo, o'z qo'lida!

Anvar TURDIQULOV,
viloyat favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi hayot faoliyatini
xavfsizligi o'quv markazi xodimi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning global muammolari Samarqandda muhokama qilinadi

Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqt mamlakatimizda, balki jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Chunki iqlimning keskin o'zgarishi natijasida ro'y berayotgan ekologik inqirozlar, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi, sho'rlanishi, eroziyasi, qurg'oqchilik kabi omillar ta'siri vaziyatning yanada murakkablashishiga olib kelmoqda.

Natijada jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin ko'tarilish tendensiyasi kuzatilyapti. Bu sohan yangi innovatsion tendensiyalar va texnologiyalar hamda ilmiy yutuqlarini qo'llash orqali yanada rivojlanirishni taqozo etadi. Ayni shu marta Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti biokimyo institutida besh yillardan buyon an'anaviy «Oziq-ovqat xavfsizligi: global va milliy muammolari» mavzusidagi ilmiy-amaly anjumanda xorijlik va respublikamiz olimlari, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda tadqiqotchilar tomonidan muhokama etib kelinmoqda.

Butunjahon oziq-ovqat kuni munosabati bilan

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning O'zbekistonidagi vakolatxonasi hamda AQSh, Rossiya, Qozog'iston va Pokistondagi oliy ta'lim muassasalarini hamkorligida o'tkazib kelinayotgan mazkur konferentsiya joriy yilning 14-15-oktabr kunlari Samarqandda oltinchi bor tashkil etiladi.

Anjumanda AQSh, Rossiya, Germaniya, Serbiya, Italya, Pokiston, Qirg'iziston, Hindiston, Turkiya, Avstraliya hamda Tojikiston kabi davlatlardan 50 nafarga yaqin olim va tadqiqotchilar ishtirok etadi. Shuningdek, respublikamizdagidagi

sohaga oid yuzdan ortiq tashkilotdan 400 nafarga yaqin mutaxassislar oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha bugungi kundagi dolzarb masalalar va ularning istiqballi yechimlariga qaratilgan ma'ruzalar bilan chiqish qiladi.

Tadbir davomida bioxilma-xililik – oziq ovqat xavfsizligining muhim omili, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning fiziologik, biokimiyov va agrotexnologik asoslari, oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini saqlashdagi zamonaevi bioteknologiyalardan foydalishin va genetika yutuqlarini qo'llashning ahamiyati, oziqlanish va ovqat hazm qilish sohasidagi zamonaevi tadqiqotlar, ularning dolzarb masalalarini, shuningdek, soha xavfsizligini ta'minlashda kimyoviy tadqiqotlarning o'mi muhokama qilinib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan taklif va taysilar ishlab chiqiladi.

Sirojiddin O'ROQOV,
Samarqand davlat universiteti
biokimyo instituti direktori,
Mirzohid KUZIYEV,
institut odam va hayvonlar fiziologiyasi va
biokimyo kafedrasи mudiri.


"ELXOLDING"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARI KUNI
VA HOSIL BAYRAMI MUNOSABATI BILAN FERMER VA
DEHQONLAR UCHUN
AKSIYA E'RON QILADI!



NARXI
24 000 000
21 000 000



NARXI
30 000 000
27 000 000



NARXI
29 000 000
26 000 000



NARXI
35 000 000
29 000 000



NARXI
24 000 000
22 000 000



NARXI
38 000 000
33 000 000



NARXI
32 000 000
27 000 000

Ko'p funksiyali "ELDOSH"
rusumli yuk motosikllarimizni
cheqirma bilan xarid qiling.

Respublika bo'ylab dilerlik
nuqtalarini va bepul yetkazib
berish xizmati mavjud.

Bizning texnikalarimizni xarid qilganingizda
sizga logotopimiz tushirilgan dubulg'a
(motoshlem) va maxsus jihozlar sovg'a qilinadi.

Murojaat uchun telefonlar:
+998 93 330-50-00
+998 93 720-06-05

Mahsulotlar sertifikatlari.



Statistika boshqarmasiga ko'ra,
viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-
avgust oylarida avtotransport
vositalari va ularning ehtiyoj qismlari
ulqurji va chakana savdo aylanmasi
hajmi 2 728,2 milliard so'mga yetgan.
Usbu ko'satsikchini hududlar
kesimida solishtirganda, eng yuqori
hajm Samarqand shahri (2 242,2
milliard so'm), Samarqand (196,1
milliard so'm) va Toyloq (183,1
milliard so'm) tumanlari hissasiga
to'g'ri kelmoqda.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'litovich notarial idorasida marhum Nadir Abdjalilovichga (2024-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'litovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Oboz ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Mansurov Xakim Nasimovichga (2020-yil 13-novabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasida marhum Ishankulova Gulnara Nurhamedovnaga (2016-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand viloyat adliya boshqarmasidan 2015-yil 30-novabrda 503-soni qaror bilan ro'yxtagi olinigan Xalqaro Amir Temur xayriya jamot fondining 2015-yil 12-oktabrdagi boshqaruvi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalqaro Amir Temur xayriya jamot fondi Samarqand viloyat bo'limining Nizomi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fugaro Xalikov Odiljon Kodirovichning harbiy guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujzatni topganlardan mukofot evaziga qaytarilishlarini so'raymiz.

Telefon: +99891-554-99-49.

Samarqand derivatologiya maktabi asoschisi

Xotira

Shunday insonlar bo'ladiki, ularning hayotdagi o'rni, qilgan ishlarning ahamiyati vaqt o'tishi bilan ko'proq namoyon bo'la boshlaydi. Atoqli tilshunos olim, mohir pedagog, professor Ne'mat Turniyozov shunday insonlardan edi.



darsliklar, o'quv qo'llamalar, monografiyalari chop etdi, nomzodlik, doktorlik ishlaringa rahbarlik qildi, shogirdlar tayyorladi.

N.Turniyozov 1941-yil 5-fevralda Paxtachi tumani-dagi hozirgi Shamsi Nazarov nomli jamoa xo'jaligida tug'il-di. Maktabda o'qib yurgan vaqtlarida ona tili va adabiyot, fransuz tiliga qiziqdi. Bu qiziqish uni Samarqand davlat universitetiga yetakladi. Imthonlarni a'lo boholarga topshirib, fransuz filologiyasi bo'limi talabasi bo'lди.

U talabalik davrida tirish-qoqligi, ilm-fanga intilishi bilan professor-o'qituvchilar nazariga tushdi. O'qishni tugallagach, N.Turniyozovni fakultetda ishga qolishga taklif etishdi. 1962-yil chet tillari kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishlay boshladı.

Ustoz pedagoglik sirlarini o'rganish bilan bir qatorda, fanni ham tashlab qo'ymadı. 1968-yil Toshkent davlat chet tillar institutining aspiranturasiga o'qishga kirdi.

N.Turniyozov 1972-yilda O'zFA Til va adabiyot institutining ixtisoslashgan ken-gashida "O'zbek va fransuz tillarida aniqlovchi ergash gaplar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Samarqandga qaytgach, universitetning fransuz va lotin tillari kafedrasida mudiri, 1978-yil da chet tillar fakultetining dekan lavozimida ishlabi.

N.Turniyozov ustozni tavsiyi bilan sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining Tilshunoslik institutiga doktoranturaga o'qishga kirdi. 1986-yil shu institutda "Hozirgi o'zbek tilida gitotaktik qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Samarqandga qaytgach, Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillari institutida kafedra mudiri lavozimlarda ishlabi. Ustoz tilshunoslik muammolari ga bag'ishlangan bir qator xalqaro konferensiyalarni tashkil etdi, ilmiy maqolalar, Domla fan fidoyisi bo'lish bilan bir qatorda kamtarin inson, mehribon ustoz edi.

Uning shogirdlari hozir nafaqt respublikamiz, balki Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari ilm dargoholarida ham faoliyat ko'satmoqda va domla boshlab bergan ishlarni davom ettirmoqda.

Kurshid XAYRULLAYEV,
Samarqand davlat chet tillar instituti kafedra mudiri, professor.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Mukaddasov Nuron Ubaydulloevichga (2003-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Davronov Davronidjan Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Kayumova Jamoatga (2024-yil 16-av-gustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumanı Oqmachit mahallasi, Bag'irkenglik ko'chasi, 4-uy.

↓ Muhohaza uchun mavzu

MOL achchig'i - JON achchig'i

Xalqimizning bu dono naqli isbotini deyarli har kuni ko'rib turibmiz. Yuzlab kishilar yo'lda hamyonini tushurib qo'yadi yoki qayerdadir qoldirib ketadi. Yana bir toifadagilar tovlamachiga ishonib, mashina olish uchun katta miqdordagi pulni ishonib birovga berib qo'yishadi. Yoki... qarz-qavola degan gap bor. Ya'ni, ular qo'li bilan berib, oyog'i bilan yugurib oladi. Albatta, bu holatlar hech kimga yangilik emas. Lekin kaminani masalaning boshqa bir tomoni qiziqtiradi.

Agar "mol achchig'i – jon achchig'i" bo'ladigan bo'lsa, unda nega biz sinalmagan odamga pulimizni ishonamiz? "Do'stingi sinamoqchi bo'lsang, qarz berib tur", degan maqloni qayta-qayta aytamiz-u, nega bu ishni qilamiz? "Sherikchilikning moli tatimas" maqloni borligini bilamiz-u, nega sinamasdan sherik tanlaymiz?

Bu savollar osmondan tushgan emas. Qaysi rahbar qabulini kuzatmang, albat-ta, ana shu masalalar ko'tariladi: kim kimni aldab ketgan, kim kimga ishonib, garovga mol-mulkini tikib qo'yan. Sabablar, oqibatlar shu qadar chigalki, odamlar ikki oyog'i bir etikka tigilganda, puliga joni achinganda, hammani ayblay boshlaydi. Hatto hech qanday hujjatlarsiz ko'chada ketayotib o'zar oldi-berdi qilganlar ham bir-biridan aldansa, ichki ishlar xodimlari, prokuratura yoki sudga da'vo qilishadi. "E, xumpar, tanimagan odaminga pul berishda, sinalmagan odam bilan sherik bo'lismada sen kim bilan maslahat qilgan eding?", degan savollaringizni eshitgich ham kelmaydi. Negaki, "mol achchig'i – jon achchig'i".

Davlat ham o'z xazinasiga ana shunday nuqtai nazardan qaraydi. Ya'ni, katta mashaqqat evaziga ko'pchilikdan yig'ilgan soliq mablag'inining talon-toroj bo'lishiga yo'l qo'yisi kemaydi. Agar shunday hol

ro'y bersa, albatta, bunday noplak kishilariga ko'zini "olaytiradi", jazolaydi. Ba'zi rahbarlarimiz, bevosita moliyaviy masala bilan shug'ullanuvchi noplak kishilar nima uchundir ana shu aqidani unutib qo'yishyapti. Shuni aytish kerakki, davlatning achchig'i shaxsning achchig'idan kuchliroq, qat'iyroq. U kechirmaydi. Davlatning qancha pulini o'zlashtirgan bo'lsangiz, o'sha miqdorda, hatto foizi bilan qaytarib oladi, buni unutmaslik kerak.

Huquq-tartibot organlari xodimlarining aytishlaricha, hozirgi nizolarning katta qismi, aniqrog'i, to'qson foizdan ko'pi moliyaviy nizolarga, manfaatga kelib taqalar ekan. Chunki mablag'ni yo'qotgan, mulkidan mosuvo bo'lgan odamga hamma dushman, to yo'qotgan narsasini qaytarib olmaguncha hammaning ustidan yozaveradi, hamma tashkilotga kirib boraveradi.

Sud majlisi bo'lyapti... Ikki aka-uka bir-biri bilan oldi-berdi qilgan chog'ida xatoliklari tufayli tortishyapti. Ikkalasi ham o'zini haq deb bilyapti. Bir qorindan talashib tushganlarning pul ustida bir-biriga aytgan tuhmat va haqoratlari so'zlaridan naqaqtan zalida o'tirganlar, hatto sudyaning o'zi ham beixtiyor nafratlanib ketyapti.

Bitigimdan niyatim shu: keling, ana shu ikki aka-uka holiga tushmaylik!

Farmon TOSHEV.

Yaqinda dugonam Yevropa sayohatidan qaytdi. Avvaliga chet el hayoti haqida havas bilan gapirdi. Aytishicha, Shvetsiyada ta'llim tizimi juda yaxshi yo'lg'a qo'yilgan bo'lib, maktab ota-onan bilan hamkorlikda ishlaydi. Hamkorlik bizdagisi singari o'ttiz nafer ota-onanining ichida birining bolasini to'polonchi, yaxshi o'qimaydi, deb izza qilish emas, aksincha, o'qituvchi har bir ota-onan bilan alohida shug'ullanadi. Uning yutuq va kamchiliklarini ota-onanining o'zi bilan muhokama qiladi, muammolarga yechim axtaradi. Bolaning imkoniyatlari, qiziqishlaridan kelib chiqib, maktabda unga oshpazlilik, sartaroshlik, duradgorlik, tikuvchilik kabi kasblar o'rnatiladi. O'quvchi maktabda ta'llim olish bilan birga mustaqil hayotga tayyorlanadi.

Bola tarbiyasida ota-onan o'z vazifasini astoydil bajaradi. Masalan, er-xotin o'zar o'rijashgan taqqidra ham bolaning tarbiyasida birga ishtirot etadi. U bilan sayr qiladi, dars tayyorlaydi, bayramlarni birlgilikda nishonlaydi.

Davlatning 68 foizi o'rmon bo'lib, yana har yili minglab daraxtlar ekladi. Shuning uchun ham tabiatni toza, kisloroda boy. Odamlari sog'lom hayot tarziga amal qilib, sport bilan muntazam shug'ullanadi. Hamma joyda yugurish uchun yo'laklar bo'lib, deyarli semiz odamni uchratish qiyin.

Jamroat transporti tizimi juda yaxshi yo'lg'a qo'yilgan, mamlakatning istalgan joyiga qulay shart-sharoitga ega yo'lovchi tashish avtobuslari qatnab turadi. Shunisi ajablansarliki, mansabdolarga davlat tomonidan alohida xizmat mashinasi

JANNAT – BU VATAN, OTA-ONA



ajratilmaydi. Mansabdorlar avtobus va metroda ishgqa qatnaydi.

Odamlar istalgan joyga chiqindagi tashlab ketmaydi. Chiqindagi tashlash joylarida turiga qarab, maxsus qu'tilar joylashtirilgan. Chiqindilar chiqindixonanining o'zida to'g'ridan-to'g'ri qayta ishslashga yuboriladi. Ba'zi bo'shagan ichimlik idishlariga pul to'lanadi. Ayrimlar ichimlik idishlarini yig'ib, puliga haftalik oziq-ovqat so'tib oladi.

YEVROPAGA HAVAS QILSA BO'LADIMI?

Ammo dugonam chet elning yomon tomonlarini ham aytib berdi. Yevropada ota-onan bilan o'n sakiz yoshta yo'lg'an farzand birga yashamaydi. O'n sakiz yoshta kig'an yigit yoki qiz alohida mustaqil yashash uchun boshqa kvartiraga chiqib ketadi. Keksalar esa qariyalar uyida yoki yolg'iz yashaydi.

Yoshlar rasman nikohdan o'tishni istamaydi, shunchaki bir-biriga ishonch bildirib yashayveradi. Farzand ham ko'rishi mumkin. Ba'zilar olla mas'uliyatidan qochib, uylanmaydi, ya'ni yolg'iz yashaydi.

Yolg'izlikni xush ko'rurvchilar ichida ba'zan o'z joniga qasd qilish holatlari uchrab turadi.

OILA QURISH VA FARZAND KO'RISHNI ISTAMAYDI

Yaqinda feysbuk sahifasida yapon kampiri o'zbek oilasida tug'ilgan chaqaloqni ko'rish uchun kelgani haqidagi postni o'qigandim. Postda yozilishicha, ertalab yapon kampiri bolalari kvartirani boshiga ko'tarayotgan o'zbek oilasining eshigini taqillatadi. Xonodon sohibi endi keksa ayoldan gap eshitaman, deb eshikni ochadi. Yapon kampiri undan chaqalog'ini ko'rishga ruxsat so'raydi. Biroz bolani o'natadi, so'ngra har kuni sizlarniga kelib tursam maylimi, deydi. Yigit kampirga birga yashashni taklif etadi. Suhbat asnosida keksa ayol yolg'iz yashashi, uning ikki nafer farzandi borligi, ular onasini ko'rgani bir yilda bir marta kelishi, farzandlarining ikkalasi ham oila qurmaganini aytadi. Shuningdek, ular yashaydigan ko'p qavatlari uyduda birorta ham oilda yosh bola yo'qligi haqidada gapiradi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.

Sahifalovchi:

A.ISMOILZODA.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 742 nusxada chop etildi. Buyurtma 537. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqishi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Tilimizni kelajakka qanday ahvolda qoldiryapmiz?

↓ Ochig'ini aytganda...

O'zbek tili ma'rifat va madaniyatning ajralmas qismi sifatida o'zbek xalqi hayotida muhim ahamiyatga ega. Ona tili orqali ilm-fan, milliy an'analar, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlar avlodda avlodga o'tadi. Ayniqsa, o'zbek tili she'riyat, mu-siqa, teatr, xalq og'zaki ijodida yetakchi mavqega ega. Bosh-qacha aytadigan bo'lsak, bugungi kunda o'zbek tilining asl qiyofasi adabiy va ilmiy risolalarda, teatr va kinoda, matbuot va televideniyeda saqlanib qolmoqda, xolos.

Lekin bu holatni ham quvonlar deb bo'lmaydi. Chunki yuqorida bildirilgan fikrlar faqatgina davlat telekanallari va davlat buyurtmasi asosida suratga olinayotgan kinofilmarga xosdir. Xususiy telekanallarning ko'payishi va ularda faoliyat yuritadigan boshlovchilarning asosan shevada, xususan, Toshkent shevасida gapirishi o'zbek adabiy tilining mustahkam ildizlariga bolta urmoqda. Bu holatni so'nggi yillarda suratga olinayotgan o'zbek seri-allari qahramonlarda ham, bloarlarning faoliyatida ham ko'plab kuzatish mumkin. Bu esa og'zaki nutq madaniyatimizda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yosh avlodning ijtimoiy tarmoqlarda juda faoliagini inobatga oladigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlangan fikrlar bora-bora oddiy holga aylani-

shi ehtimoli yo'q emas. Bildirilayotgan fikrlarimiz faqatgina og'zaki nutqqa taalluqli emas. Yozma nutqimiz ham jar yoque lab bormoqda, desaki mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, lug'atimiza "chunmadim" (aslida "tushunmadim"), "uyinda" (aslida "uyingda"), open (aslida "opang") kabi adogi yo'q sheva so'zlarining adabiy norma sifatida qo'llanayotgani ko'pchilikni g'ashini keltirayotgan bo'lsa ajab emas. Tilimizning yangi so'zlar bilan boyishi salbiy holat emas, agar bu boyish texnika va texnologiyada qo'llaniladigan atamalar hisobiga bo'lsa. "X" va "h" harflarini yozma nutqda ifodalashda xatoliklarga yo'q yardik. Bu muammomiz kengayib, "z" va "s", "i" va "e" harflarini ham bermalol bir-biri bilan almashitirmoqdamiz: "vos" – "voz", "eg'lagan" – "yig'lagan" kabi.

Bularni qo'yib turing, ijtimoiy tarmoqlardagi ba'zi kanallarning "Chotki TV" kabi nomlanishiga nima deysiz? "Chotki"ning o'zbekcha emasligi hammasiga ma'lum. Lekin bu so'zning rus tilida ham bunaga yozilmasligini ko'pchilik bilsa kerak. Ajablanarli, ushbu kanalda biz ziyo sanaydigan mashhur san'atkorlar ham ishtirot etib, bu haqda hech qanday e'tirof bildirmaganida. Yoki bunday muammolar bilan faqat filologlar shug'ullanishkeri kerekmi? Aslida bu har bir o'zbek fuqarosining burchi emasmi?

Til aslida davlatchilikning jiddiy masalasidir. Lekin nima uchun ona tilimizga bunchalik befarcamiz? Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, o'zbek adabiy tili VII asrga mansub bo'lgan O'rxun-Enasoy bitkotshlaridagi yozuvlar bilan 55 foiz mos tushar ekan. 14 asrdan beri amal qilib kelayotgan tilimiz bu ketishda yana qancha qismini saqlab qoladi? Biz kelajak avlodga tilimiz qanday ahvolda qoldiramiz?

Shohista MAMASOLIYEVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi.



"Samarcandga borsam men agar..."

Муҳаррир, шавати на субъектар

borsam men agar..." kitobini yozishni boshlagan edi. Hamkasblari - "Yangi O'zbekiston" gazetasini muharriri, xodimlari va do'stlari uning ushbu kitobini oxiriga yetkazishdi.

Kitob yaqinda mualif tanlagan sarlavha bilan Toshkent shahridagi "SAHHOF" nashriyotida bosmdan chiqdi.

Kitobdan mualifning "Yangi O'zbekiston" gazetasida chop etilgan sara maqolalari joy olgan. Bu maqolalarni o'qigan har qanday kishi Abdurauf Qorjovning jurnalistika sohasidagi mahoratini his etadi. Muhimi, ushbu risola iqtisodiy mavzuda maqola yozishni niyat qilgan yosh muxbirlar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi.

Akram BO'RIYEV.

Yaponiya, Shvetsiya kabi rivojlangan davlatlarning ertasi ayanchli. To'g'ri, ular iqtisodiy jihatdan bizdan 40-50 yilga (balki undan ham ko'p) taraqqiy etib ketgandir. Biroq ular o'zligini, milliy qadriyatlarini unutdi. Balki biz ham mustaqillikka erishmaganimizda o'rislashib, nasli davom ettirishni unitarmidik? Sababi, Rossiyada ham tug'ilish yildan yilga kamyib bormoqda. Nikoh ham ular uchun jiddiy masala emas, bir-birini yoqtirgan yigit-qiz rasman nikohdan o'tmasdan yashayveradi.

Xoriga jannat qidirib ketgan vatandoshlarimiz haqida ba'zi xabarlarini eshitayapmiz. Ayniqsa, chet elda katta bo'lgan bolalar mentalitetimizga yot bo'lgan xatti-harakatlari bilan ota-onalarini xafa qilaydi. Ba'zi otalar oriyatiga chiday olmay, hamma narsasini tashlab, oilasi bilan O'zbekistonga qaytib kelyapti. Xullas, chet el hayoti biz orzu qilgan joy emas.

Mustaqillik bizga nima berdi, deydiqanlarga mustaqillik o'zligimizni asrab qolishga, islamiy madaniyatimizni qaytarishga, dunyoga nega kelganimizni anglab yetishga yordam berdi, deb baralla aytaya olaman. Shukurki, yurtimiz tinch, xonadonlarimizda chaqaloq yig'isi jaranglab turibdi. Ba'zi davlatlar go'dak yig'isiga zor bo'lib turgan bir paytda yurtimiz aholisi yildan yilga ko'paymoqda. Shukurki, bizning ayollarimiz qomati buzilishidan qo'rqmaydi, aksincha, bag'rida bolasi bo'imasligidan qo'rqadi. Shukurki, erkaklarimiz yolg'iz yashashni istamaydi, xorida qiynalib mehnat qilsa ham bolalari ta'minotini asosiy vazifa deb biladi. Shukurki, keksalarimiz uyimizning farishtasi, duogo'yumi. Ularning duosisiz biz, farzandlar hech qanday muvaffaqiyatiga erisha olmasligimizni yaxshii bilamiz. Shukurki, bizga Vatanga sodiq bo'lish, ota-onaga yaxshilik qilish, odamiylik haqida ta'